



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№22

30 ноябрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
7-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-7**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-7**



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 125 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

1. Amankulova Nargiza Izzatullayevna MILLIY- MA'NAVIY QADRIYATLARDA UMUMINSONIY FAZILATLARNING AKS ETISHI.....	9
2. Narbutayeva Munira G'ulombekovna BRITISH AND AMERICAN ENGLISH AND GRAMMATICAL DIFFERENCES.....	11
3. Otajonova Zamira KONSTITUTSIYA BAXTIMIZ QOMUSI	12
4. Qanoatova Nazokat Sotvoldi qizi “QARAMOQ” FE'LINING GAP AKTUAL STRUKTURASIGA TA'SIRI	14
5. Ruziyeva Ibodat Shaxriyrovna ONA TILI VA ADABIYOT FANINING O'QUVCHILAR NUTQINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI.....	16
6. Қосим Абдуллох Мирафзал ўғли АРАБ ТИЛИДАН ИСПАН ТИЛИГА ЎЗЛАШГАН СЎЗЛАР ВА БУНГА ТУРТКИ БЎЛГАН ОМИЛЛАР.....	17
7. Abdurazokova Sarvinoz “NAHJUL FARODIS” ASARINING BADIYYATI	20
8. Adambayeva Nargiz Xakimbayevna RUS TILI DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	22
9. G'aniboyeva Mashxuraxon G'ayratovna EDUCATING THE YOUNG GENERATION BY THE HELP OF FOREIGN LANGUAGE ENGLISH.....	24
10. Kh.Kodirova ESSENTIAL WAYS OF IMPROVING WRITING SKILL FOR B1 LEARNERS	26
11. Urinova Navruza Jalolovna VARIOUS ACTIVITIES FOR TEACHING TO READ.....	28
12. Yusupova Zulfiya Samandarovna ONA TILI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARI.....	30
13. Улашева Лобар Илҳомжоновна, Абдиназарова Нозимахон Комил қизи РУС ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИНИ ЎРГАНИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	32
14. Axunov G'ayrat Mo'minovich INGLIZ TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQ MASHQLARI.....	34
15. Berdiyeva Gavxar Gayratjonovna TIL MILLATNING RAMZI	36
16. Gapparova Yulduz Egamberdiyevna INGLIZ TILIDA FE'LNING ANIQ VA NOANIQ SHAKLLARI	38
17. Maxmudova Dilnoza Odilovna XORIJIY TILLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI.....	40
18. Qo'ziyeva Xursand Negmurodovna ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH.....	41
19. Xatamova Makhliyo Nozimjon qizi GRAMMAR GAMES IN ENGLISH LESSONS	43
20. Xolova Malika ONA TILI TA'LIMIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	45

21. Sirojiddinov Ziyoviddin Sharofiddin o‘g‘li O‘ZBEK TILIDAGI SO‘Z TURKUMLARINING MATEMATIK MODELLARINING TAHLILI ASOSIDA ALGORITMLARINI VA DASTURIY TA‘MINOTINI YARATISH	47
22. Madrimov Bobirbek Nodirbekovich, Davletova Guzal TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS.....	49
23. Якубова Мукадас Якубовна УЧИТЕЛЬ НОВОГО ВРЕМЕНИ: КАК ВДОХНОВИТЬ УЧЕНИКА ПИСАТЬ?!.....	51
24. Shavkat Abdullayev CHET TILINI O‘QITISHDA OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQ BOYLIGIGA ERISHISH.....	53
25. Nodira AbidjanovaYusupovna THE ORIGINS OF GLOBALIZATION OF THE ENGLISH LANGUAGE IN THE MODERN WORLD	55
26. Aliyeva Dildora Sherkuziyevna THE WAYS OF TEACHING ENGLISH THROUGH GAMES.....	57
27. Axmedova Nargiza Nasriddinovna, Yo‘ldoshova Dilafruz Isaqulovna O‘QUVCHILARNING MATN BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	59
28. Bakayeva Kamola Ulug‘bekovna, G‘aybullayeva Kamola Samatovna IN ENGLISH LESSONS, IN DEBATES AND COMMUNICATION, THERE IS A LESSON ABOUT DENTAL METHODS AND TECHNIQUES OF THEIR APPLICATION.....	62
29. Dilshoda Hojibayeva Mukhtarovna CONCEPTUAL BASES TECHNIQUES ON APPLIED DESIGN IN ENGLISH COURSES.....	64
30. Bahora Hatamova Uktamovna ENGLISH TEACHING METHODS ON CREATIVITY AND TECHNIQUES LESSON.....	65
31. Xudoykulova Umida A‘lamjonovna TIL IJTIMOIIY HODISA SIFATIDA.....	66
32. Ibragimova Maftuna Nosirjonovna ROLE-PLAYING AS A TEACHING STRATEGY	68
33. Isroilova Khursanoy Pozilovna USING PROJECT WORK IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE	70
34. Karimova Go‘zal Ulug‘bek qizi O‘QUVCHILAR YOZMA NUTQINI O‘STIRISHDA DIKTANT TURLARIDAN FOYDALANISH USULLARI.....	72
35. Khasanova Dilafruz Kabuldjanovna TEACHING AND DEVELOPING LISTENING ACTIVITIES AT SECONDARY SCHOOLS	74
36. Тулиева Мухаббат Машарибовна, Ахмедова Феруза Ражаббоевна, Хаитбоева Шоира Октябровна ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОР В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ	76
37. Maxmudova Dilnoza Odilovna O‘QUVCHILARDA CHET TILLARINI O‘RGATISH ZARURATI.....	79
38. Xodjimatoeva Nozima Djamolitdinovna, Maxmudova Sadoqat Umarjonovna BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH.	81
39. Mirzaev Davlatbek Mahmudovich PRINCIPLES OF LESSON PLANNING	83
40. Nabiyeva Khursanoy Akmaljonovna, Oxunova Nargiza Ergashevna TEACHING ENGLISH DIFFICULTIES WITH USING VISUAL AIDS	84
41. Ibragimova Maftuna Nosirjonovna IMPORTANCE OF ASSESSMENT ANALYSIS IN IMPROVING LINGUISTIC COMPETENCE OF SECOND LANGUAGE.....	86

42. Nuridinova Dilorom Sultonova, Fayzullayeva Sojida Ulug‘bekovna ACTUALITY OF FORMATION OF FOREIGN–LANGUAGE AUTONOMY OF THE CADET OF MILITARY HIGHER EDUCATION INSTITUTION DURING THE TRAINING IN THE FOREIGN LANGUAGE	88
43. Nurmatova Nazokat Nugmonjonovna INGLIZ TILINI O‘QITISHNING BUGUNGI ZAMONAVIY USULLARI	90
44. Olimova Nafisa Voxobdjonovna NEMIS TILINING O‘QITILISHI	92
45. Rahmonova Gulhayo Inomjon qizi TOPONIMIKA VA TILSHUNOSLIK	94
46. Mirzamuratov Farhod Rasulovich CAPACITY BUILDING	96
47. Собирова Гулноза ТАЛАБАЛАРДА АУДИТИВ НУТҚНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	98
48. Sodikov Tulkinjon Sobirovich THE WAYS OF INCREASING FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN PRIMARY CLASSES	100
49. Toshova Sevinchxon Odilovna INGLIZ TILI FANINING O‘QITILISHI	102
50. Turg‘unova Gullola Hoshimjon qizi O‘ZBEK TILINI O‘RGATISH DARAJALARINING MAQSADI	104
51. Ulmaskhon Valieva Ismailovna USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE TEACHING FOREIGN LANGUAGE	106
52. Ҳамдамова Маъмурахон Ҳамдам қизи ЛЕКСИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ СЛОВОУПОТРЕБЛЕНИЯ	108
53. Xo‘jayeva Gavxar O‘ZBEK TILI O‘QITISH METODIKASIDA YANGI BOSQICH	110
54. Yangiyeva Gulnora Farmonovna DAVLAT TILI - MUSTAQILLIGIMIZ BELGISI	112
55. Yaqubova Inobat Qodirovna, Nazarov Hakimjon Shamurotovich USEFUL TECHNIQUES IN TEACHING ENGLISH VOCABULARY	114
56. Yuldasheva Shahzoda Botirjonovna TIPS FOR LEARNING ENGLISH BY TRAVELLING	117
57. Дьяченко Анна Александровна ОБУЧЕНИЕ, ОРИЕНТИРОВАННОЕ НА УЧАЩИХСЯ: ВСЕ НАЧИНАЕТСЯ С УЧИТЕЛЯ	119
58. Пирметова Мукадас Шерметовна РУС ТИЛИ ДАРСЛАРИДА РАҚАМ ҚАТНАШГАН МАҚОЛЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	121
59. Muhammedova Matluba Axadovna ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KOMMUNIKATIV MULOQATGA O‘RGATISHDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	123



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

MILLIY- MA'NAVIY QADRIYATLARDA UMUMINSONIY FAZILATLARNING AKS ETISHI

*Amankulova Nargiza Izzatullayevna.
Samarqand viloyati Narpay tumani XTB ga
qarashli 64-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda ulug'lanib kelinayotgan milliy-ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlarga mosligi hamda bugungi kunda qadriyatlarning yoshlar hayotidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy sohalar, milliy g'oya, milliy mafkura, umumbashariy qadriyatlar.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ma'naviy sohadagi islohotlarimiz ko'lami yanada kengayib, milliy g'oya, milliy mafkura ruhi xalqimiz ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga nisbatan munosabat kengaymoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining „Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish—barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir“ asarida shunday deydi: „Bizga hamisha ma'naviy kuch-quvvat beradigan milliy qadriyatlarimiz, boy tarix va madaniyatimiz, buyuk ajdodlarimizning qoldirgan bebaho merosi, din-u diyonatimizni ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, e'zozlab, ertangi kunga bo'lgan ishonch tuyg'usini o'z amaliy ishlarimiz bilan yanada mustahkamlash lozim“. Bugun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o'zligini tobora chuqurroq anglab borgani sari barchamizning qalbimizda „Biz kimmiz, kimlarning avlodimiz, kimlar bilan faxrlanamiz, biz ularga munosib bo'la olamizmi?“ degan da'vatkor so'zlar teran ma'no kasb etishi tabiiydir. Biz yosh avlodimizni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga, ularning umumbashariy taraqqiyot yutuqlari, zamonaviy bilimlarni har tomonlama chuqur va puxta egallashi uchun barcha shart-sharoitni yaratib berishimiz lozim. Yoshlarimizni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, barcha sohalarida dunyodagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, biz boshlagan ishlarning munosib davomchilari, mard va jasur, komil insonlar qilib tarbiyalash—bu nafaqat kata baxt, ayni paytda bu avvalo, o'zbek xalqining qadimiy shuhratini qayta tiklash, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish, rivojlangan davlatlar safidan o'rin egallashning asosiy sharti va garovidir.

Milliy qadriyatlar—millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihati va xususiyatlari bilan bog'liq qadriyat shakllari. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamdamadaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biridir. Xalqimizning asrlardan asrlarga meros tarzda kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlarning eng yetuklari va milliy manfaatkarga moslari asta-sekin saralanib, umummilliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u milliy qadriyatlarning eng yaxshilarini voyaga yetkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi.

Milliy mafkuraning umumbashariy tamoyillari—uning umuminsoniy mazmunidan kelib chiqadi. Birinchi Prezident Islom Karimov asarlari asosida tayyorlangan „Milliy istiqloq g'oyasi : asosiy tushuncha va tamoyillar“ risolasida mafkuramiz tayanadigan umumbashariy tamoyil va



qoidalar ko'rsatilgan:

- mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashda yordam berish;
- qonunning ustuvorligi, demokratiya va o'zini o'zi boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallayotganiga asoslanganlik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanish;
- xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;

Ushbu qadriyatlar asosida shakllangan milliy mafkura, o'z mohiyatiga ko'ra xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillariga mos keladi, ularni milliy darajada namoyon bo'lishi uchun imkon yaratadi. Shu bilan birga u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, din va qatlam vakillarining umumiy maqsad- muddaolarini ifodalaydi, xalqimiz o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydi, uning asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mazkur mafkuraning jahondagi demokratik jarayonlar, tinchlik va barqarorlik, inson huquqlari va vijdon erkinligi kabi umumbashariy qadriyatlar mazmuniga mosligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov. „Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish— barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir“. Toshkent. 2002-yil
2. „Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar“ risolasi. Toshkent. 2000-yil



BRITISH AND AMERICAN ENGLISH AND GRAMMATICAL DIFFERENCES

Narbutayeva Munira G'ulombekovna
Djizzakh, an English teacher at school No: 14
Email: muniranarbutayeva@gmail.com

Annotation: There is no denying that learning English, which is a foreign language, is now one of the main foods for students. The rules for learning any language we learn are as endless as the ocean. It tells us that there are lexical and grammatical differences between British and American English.

Keywords: British English, American English, colloquial, group names

English is the main spoken language in the British and American territories, and these two language centers have their own distinctive features, which are lexically very long. The following are examples of similar lexical, grammatical, and pronunciation differences, proving what is said in our language:

Will you play football at the weekend? (British English)

Will you play soccer on the weekend? (American English)

The first of the two sentences above, 'Do you play football on the weekends', refers to British English, where they refer to football as 'Play football', while American English refers to it as 'Play soccer'. It is worth noting that the word, which is now translated into Uzbek as 'Weekend', which includes Saturdays and Sundays, is used in American English with the preposition 'On' and in British English with the preposition 'At'. Let's look at the following example.

Let's sit at the front of the cinema. (Britain)

Let's sit in the front of the movie theater. (America)

Below we analyze another example and focus on the differences in spelling rules:

I have a gray pencil. (or I have got in BritainEnglish)

I have got a gray pencil. (in American English)

The grammatical variety that catches our attention is the use of 'Have and have got'. So 'can' or 'have got' can be used in British English. But 'Have got' should be used in American English. 'Gray' is gray, which is an English word that varies in spelling in regions. That is, the British write this color as 'Gray', while the Americans write it as 'Grey'. So below are some examples.

There are many such words. When it comes to grammatical proportions, let's move on from the simplest to the most complex.

References:

1. Juan Shi. Communication in a Problem Based Learning Environment. Victoria University, Melbourne, Australia. 2006.



KONSTITUTSIYA BAXTIMIZ QOMUSI

*Otajonova Zamira
Amudaryo tumani, Mang'it shahari
36- sonli maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi*

“Konstitutsiya” so‘zi turli davrlarda, turli ma‘nolarda qo‘llanilgan bo‘lsada, bugungi kunda u oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan, amaldagi qonun va me‘yoriy hujjatlar poydevorini, tagzaminini tashkil etadigan, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish qat’iy nazorat qilinadigan Asosiy qonunni anglatadi. Konstitutsiya huquqiy davlatning asosiy belgisi hisoblanadi. Unda jamiyatning ijtimoiy siyosiy xususiyatlari, taraqqiyotining bosh mezonlari, mamlakatning ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Konstitutsiyaning muayyan mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining huquqiy zamini, mezoni ekanligi uning funksiyalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyaning eng asosiy funksiyalaridan biri – davlatchilik rivojlanishidagi vorislikni ta‘minlashdir. Bu borada shuni aytish lozimki, konstitutsiyamizda mustahkamlangan oilaga bo‘lgan e‘tibor yoki ota-onaga bo‘lgan munosabat xususidagi qoidalarni oladigan bo‘lsak ham, bu xalqimizning ongida necha asrlardan buyon shakllangan urf-odatlarimizning bir bo‘lagiga aylangan umume‘tirof etilgan odatlarimizning Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topganligining bir namunasidir.

Konstitutsiyaningsiyosiyfunksiyasini oladigan bo‘lsak, u jamiyatning ijtimoiy tuzumini tartibga solish bilan birga siyosiy hayot hamda hokimiyat uchun kurashning muayyan huquqiy doirasini belgilab berishda ifodalanadi. Tashkiliy funksiyaning mohiyati davlatning konstitutsion tuzilishini tashkil etish va uning faoliyatiga doir asosiy mezonlarni tartibga solishdan iborat.

Konstitutsiyada jamiyat taraqqiyotiga turtki beruvchi g‘oyalari o‘z ifodasini topadi. Bu uning amaliy funksiyasini namoyon qiladi. Konstitutsiya asosiy qonun sifatida muayyan davlatning huquqiy va qonunchilik tizimlarining o‘zagini tashkil etadi, huquqiy tizim faoliyatining ustuvor tamoyillarini belgilaydi va bu uning yana bir –yuridikfunksiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonimizning Konstitutsiyasida yurtdoshlarimizning kelajak avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish, ularning baxtu kamolini ko‘rishdek orzu-havaslarini o‘z ifodasini topganligi bilan birga, davlatimiz rahbari ta‘kidlaganlaridek, unda jamiki dunyoviy ne‘matlar orasida eng ulug‘i – Inson degan fikr ilgari surilgan va shu asosda fuqaro – jamiyat – davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimi belgilab berilgan. Asosiy qonunimizda demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyatining qiyofasi, o‘ziga xos belgi va xususiyatlari shakli va shamoyillari o‘z ifodasini topgan.

Ulug‘ ajdodlarimizning asriy armonlari, erkin hayot, farovon jamiyat va adolatli davlat barpo etishdek eng ezgu tilaklari va ulug‘ orzularini o‘zida mujassam etgan davlatimiz Konstitutsiyasi barcha qabul qilinadigan qonunlar va me‘yoriy hujjatlar uchun mustahkam asos va dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamizda shaxs, uning huquq va erkinliklari davlatdan ustunligi e‘tirof etilgan, shuningdek, unda inson qadri, shaxs erkinligi va hayotini ta‘minlovchi tabiiy imkoniyatlarni yuzaga chiqishiga alohida ahamiyat berilgan.

Konstitutsiyamizda shaxsning yoshi, millati, irqi, ijtimoiy ahvoli bilan bog‘liq hech qanday cheklashlar yo‘q. Masalan, boshqa mamlakatlarning fuqarolikka ega bo‘lish to‘g‘risidagi qonunchiligida kuzatishimiz mumkin bo‘lgan til bilish va o‘troqlik masalasida ham cheklashlar yo‘q bo‘lib, teng fuqarolik huquqi mustahkamlab qo‘yilgan. Bosh Qomusimizda insonning kundalik hayotdagi eng muhim ehtiyojlarini ta‘minlovchi imkoniyatlar – yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, sud jarayonida shaxsiy manfaatlarni himoya qilish huquqi, turar joy daxlsizligi huquqi, bir joydan ikkinchi joyga erkin ko‘chish huquqi, fikrlash, e‘tiqod va so‘z erkinligi, vijdon erkinliklari qonuniy yo‘l bilan kafolatlangan.

Umuman, konstitutsiyamizda ko‘p yillik milliy davlatchiligimiz an‘analari inobatga olinishi bilan birga, jahon konstitutsiyalarining tajribalaridan ham keng foydalanilgan. Shu yo‘l bilan uning eng insonparvar, demokratik va adolatli Qomuslardan biri bo‘lishiga erishilgan. Shuni ham alohida ta‘kidlash joizki, bugungi kunga kelib bosh Qomusimiz har bir fuqaromiz qalban va



vujudan e'zozlovchi muqaddas huquqiy qadriyatga, umid, ishonch va ezgu-niyatlar qo'rg'oniga aylangan. Yillar o'tgan sayin konstitutsiyamizning hayotimiz, taraqqiyotimiz uchun ahamiyati qanchalik katta ekanligiga, tanlagan yo'limiz nihoyatda to'g'ri ekanligiga qayta-qayta ishonch hosil qilaveramiz.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya – tarixiy ahamiyati beqiyos bo'lgan hujjatdir. Uni shu vaqtga qadar davlatchiligimiz tarixidagi boshqa hujjatlarning birortasi bilan qiyoslab bo'lmaydi. Zero, unda tarixiylik zamonaviylik bilan uyg'unlashib, jahonning ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va huquqiy tafakkuri sohasida erishilgan barcha yutuqlar mujassamlashgan.



“QARAMOQ” FE’LINING GAP AKTUAL STRUKTURASIGA TA’SIRI

*Qanoatova Nazokat Sotvoldi qizi,
Andijon davlat universiteti ATM xodimasi
Telefon: +998 90 527-77-79
nazokatatm@gmail.com,*

Annotation: The verb look “qaramoq” which has a special place in Uzbek linguistics with its variety of functional and meaning features has not been specifically studied. Taking this into consideration, the very article explains the actual division of a sentence, the theme and rheme parts and the importance of the verb look “qaramoq” in the sentence.

Annotatsiya: O‘zbek tilshunosligida funksional va ma’no xususiyatlarining kengligi bilan tilimizda alohida o‘rin tutuvchi qaramoq fe’li hozirda maxsus tadqiq etilmagan. Ana shuni e’tiborga olganimiz holda, mazkur maqolamizda gapning aktual bo‘linishi, gapning tema va rema qismlari va qaramoq fe’lining gap aktual tuzilishidagi o‘rinlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: *actual struktura, tema, rema, predikat, aspect, propozitiv, kommunikativ, denotativ, signifikativ, presuppozitsiya, propozitsiya.*

Gapning aktual bo‘linishini ba’zi adabiyotlarda gapning funksional istiqboli deb ham yuritiladi. Ma’lumki, til tafakkurning nutqda bevosita namoyon bo‘lishidir. Lekin til bilan tafakkur bir-biriga teng emas, ular dialektik butunlikni tashkil etadi. Tilni tafakkurdan va tafakkurni tildan ajratib qo‘yish mumkin emas. Ular doimo bir-birini taqozo qiladi. Gaplar (darak gaplar) mantiq birligi bo‘lmish hukmni aks ettiradi. Hukm asosan, sub’yekt va predikatdan tashkil topadi [1.25-b].

Gap mazmuniy sintaksisi haqida fikr bildirilganida uning turli xil aspektlari (propozitiv, modal, kommunikativ) ajratiladi.

Agar propozitiv (nominativ) va modal aspektlari gapning in’ikos etish semantikasini, uning denotativ va signifikativ mazmunini aks ettirsa, kommunikativ plan, birinchidan, so‘zlovchining kommunikativ niyatini, ya’ni shu gapdan ifodalangan ob’yektiv mazmun elementlarining ahamiyatlilik darajasini belgilashni (aktual bo‘laklarga ajratish) hamda darak, so‘roq, buyruq ifodalashni, ikkinchidan, presuppozitsiya axborotini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, til birligi sifatida gap semantikasiga faqat nominativ plan – propozitsiya plani oiddir. Kommunikativ plan esa jumla semantikasining, demak, nutq semantikasining predmetidir [2.380-b].

Jumlaning kommunikativ vazifasi nuqtayi nazaridan tuzilishi uning aktual tuzilishi hisoblanadi.

Kommunikativ (aktual) vazifa nuqtayi nazaridan jumlaning tashkil etuvchi elementlar *tema* (ma’lum) va *rema* (yangi) qismlariga bo‘linadi. Jumlaning rema qismi kommunikativ eng ahamiyatli qism – kommunikativ markaz hisoblanadi. Savol gapning shu kommunikativ markazini – remani aniqlash uchun beriladi [2.386-b]. Gapning aktual tuzilishi uning qismlarining tema va remalarga ajratilishi bilan izohlanadi. Gap tarkibida nechta bo‘lak bo‘lishidan qat’iy nazar, u mazmuniy jihatdan 2 qismdan: tema – ega va ega guruhi qismidan hamda rema – kesim va kesim guruhi qismidan tashkil topadi.

Maqolamizning asosiy qismida “*qaramoq*” fe’lining gap aktual tuzilishidagi o‘rniga to‘xtalib o‘tamiz.

Turkiy tillarda aktuallashgan bo‘lakning ikki xil o‘rni ko‘rsatiladi. K.M.Abdullayev turkiy tillarda aktuallashgan bo‘lakning, ya’ni remaning ikki xil o‘rni borligini: 1) kesimdan oldingi o‘rni; 2) gapning oxiri, shunga ko‘ra aktuallashishning ikki darajasi – kuchli va kuchsiz aktuallashish mavjudligini ta’kidlaydi.

Ozarbayjon tilida kuchli aktuallashish jumlaning eng oxirida, kuchsiz aktuallashish esa kesimning oldida yuz beradi. Uning ko‘rsatishicha, hamma bo‘laklar shunday ikki darajadagi aktuallashishga ega.

Bu nuqtayi nazardan o‘zbek tili turkiy tillar sistemasida alohida o‘rin egallaydi. Chunki o‘zbek tilida ayrim bo‘laklar (masalan, ega va kesim) aktuallashishning faqat bir darajasiga – kuchli darajasiga ega. Ega aktuallashuvining kuchli darajasi uchun gapning oxirgi o‘rni xarakterlidir. Hol va to‘ldiruvchilarda mazkur darajani kuzatish mumkin. Ammo, bunday holat og‘zaki nutq uchun ham, yozma nutq uchun ham normal hol emas. Odatda, o‘zbek tilida hol va to‘ldiruvchilarning so‘z tartibi yordamida aktuallashish o‘rni kesim oldi hisoblanadi [2.399-b].

*Hakimboyvachcha yalt etib ukasiga qaradi.
Yalt etib ukasiga qaradi **Hakimboyvachcha.***



Hakimboyvachcha yalt etib ukasiga qaradi.

Ukasiga Hakimboyvachcha yalt etib qaradi.

O'zbek tilida aktuallashish aksariyat hollarda gapning oxirgi qismi bilan uzviy bog'liq. Kesim gapning mazmuniy markazi hisoblanadi. Shuning uchun boshqa bo'laklar uning atrofida – unga bog'liq holda aktuallashadi. Yuqoridagi gaplarning propozitiv aspekti barcha variantlarida bir xil. Ya'ni, *Hakimboyvachchaning ukasiga to'satdan qarashi* – umumiy propozitsiyasidir. Biroq, gapning aktual tuzilishi (kommunikativ aspekt) barcha variantlarda ham bir xil emas. Birinchi variantda kesim aktuallashgan. Sababi, o'zbek tilida kesimning aktuallashish o'zni gapning oxirgi qismidir. Ikkinchi variantda ega aktuallashgan. Eganing kesimdan ham keyin joylashtirilishi unga nisbatan ta'kid ma'nosini kuchaytiradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ikkinchi darajali bo'laklar uchun kesimdan oldingi pozitsiya aktuallashish o'zni hisoblanadi. Uchinchi va to'rtinchi variantlarda kesimdan oldin kelgan to'ldiruvchi (ukasiga) va ravish holi (yalt etib) gapning aktual qismini tashkil etgan.

Gapda ega va ega guruhi hamda kesim va kesim guruhi aktual qatlamning asosiy bo'laklari hisoblanadi. Masalan, *Butun xonadonimiz sizlarga hurmat-u umid bilan qaraydi*. Keltirilgan misolda *butun xonadonimiz* – tema, *hurmat-u umid bilan qaraydi qismi* esa – remadir. Bu gapning kommunikativ aspekti jihatidan ko'rinishi. Sintaktik jihatdan nechta gap bo'lagi qatnashishidan qat'iy nazar gapning kommunikativ aspekti 2 qismdan tashkil topadi.

Jumlaning aktual bo'linishi gap presuppozitsiyasi bilan ham bog'liq. Keng presuppozitsiya ostida kishilarning o'zini qamrab turgan ob'yektiv reallik haqidagi universal bilimi tushuniladi. Ob'yektiv borliqda har bir predmetning tipik, xarakterli xususiyati, ma'lum narsaga moslanishi mavjud. Predmetlarning ana shunday xususiyatlarini tavsiflashda konkret ma'noli so'z umumiyroq so'z bilan almashinishi yoki butunlay tushib qolishi mumkin. Ammo, so'zlovchi va tinglovchi bir-birini to'g'ri tushinishi uchun uning tushib qolishi hech qanday rol o'ynamaydi [3.75-b].

Ajab inson xotirasi – eshigi yopib qo'yilgan omborga o'xsharkan. Ombor oldidan har kuni o'tasiz. O'tasiz-u, o'z yumushingiz bilan ovora bo'lib, qayrilib qaramaysiz. Vaqti kelib tasodifiy shamol omborning eshigini ochib yuboradi-yu, beixtiyor ichkariga mo'ralab qaraysiz.

Keltirilgan matnda "qaramoq" fe'li gapning oxirgi qismida kesim sifatida aktuallashgan. Bu matnda ham aktuallikni, ham presuppozitsiyani ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, "**qaramoq**" fe'lining o'z ma'nosi emas balki pragmatik ma'nosi gapning pragmatik strukturasi shakllantirgan.

Aktuallashishning yana bir vositasi gap urg'usi hisoblanadi. Logik urg'u yordamida gapning istalgan qismi aktuallashishi mumkin. Yoyiq jumlada qaysi bo'lak mantiqiy urg'u ostida bo'lsa, shu bo'lak, rema, qolgan bo'laklar tema qism bo'ladi. Savol ham shu mantiqiy urg'uli bo'lakka qarab beriladi. Masalan:

– *Oxo! Nash! – Dyadya Vasya kotelokni changallaganicha osmonga qaradi.* (Nima qildi?)

– *Oxo! Nash! – Dyadya Vasya kotelokni changallaganicha osmonga qaradi.* (Qayerga qaradi?)

– *Oxo! Nash! – Dyadya Vasya kotelokni changallaganicha osmonga qaradi.* (Qay holatda?)

– *Oxo! Nash! – Dyadya Vasya kotelokni changallaganicha osmonga qaradi.* (Kim qaradi?)

Mantiqiy urg'uni xarakterlaydigan birinchi omil semantik yoki aktual omillardir. Mantiqiy urg'uli bo'lak shu jumlaning mazmuniy eng ahamiyatli bo'lagi bo'lib, rema qismini tashkil etadi. Qolgan bo'laklar esa tema bo'ladi [3.36-b].

Xulosa qilib aytganda, gapning aktual strukturasi ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri logik urg'udir. Gap mazmuniy tuzilishida presuppozitsiya va aktual qatlamlarning alohida o'zni bor. Bularning birinchisi kishilarning amaliy bilimlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi kommunikativ vazifasining amalga oshirishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, O'qituvchi, 1992 yil
2. A.Nurmonov. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, Akademnashr, 2012 yil
3. A. Nurmonov. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, 1984 yil.
4. N.Mahmudov., A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent, "O'qituvchi", 1995 yil.

Internet ma'lumotlar:

5. www.google.ru. <https://ru.m.wikipedia.org>.
6. www.google.com/http.wikipedia.
7. [www.ziyonet.//https://uz.davron.wiki](https://uz.davron.wiki).



ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ФАНИНИНГ О‘QUVCHILAR NUTQINI ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ О‘RNI

Ruziyeva Ibodat Shaxriyorovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tuman
13-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Ona tili va adabiyot fanining o‘quvchilar nutqini to‘g‘ri shakllanishidagi o‘rni to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: nutq, mazmundorlik, mantiqiy fikrlash, taqqoslash. Inson uchun nutq bu uning butun turmush tarzi va hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ajralmas qism hisoblanadi. Nutq insonning ichki olamini ochib bera oladigan yagona yo‘l hisoblanadi. Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go‘zal, ifodali bo‘lishiga yordam beradi.

O‘quvchilar nutqini rivojlantirishda quyidagi jihatlarga e‘tiborli bo‘lishi lozim. Birinchidan, o‘quvchi nutqida fikrning mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina, uning ta‘sirchanligi ortadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to‘g‘ri baho bera olish, shu yo‘l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. Nutqning mantiqan to‘g‘riligi fikrlarning aniq va bir-biriga izchil bog‘langanligi, mavzudan chetga chiqmaslik, hukm va xulosalar asosli bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, nutqning ohangdorligi. Ohang o‘quvchi nutqining ta‘sirchanligini oshirish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun she‘riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o‘qiy olish ham o‘quvchi nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. U ohang yordamida nutqni sintagmalarga bo‘ladi, mantiqiy urg‘uni ham o‘rinli qo‘llaydi.

Uchinchidan, nutqning soddaligi va sofligi. Sodda nutq, avvalo, tushunarli bo‘ladi. Nutqning tushunarli bo‘lishi bir tomondan, fikrni lo‘nda, aniq bayon qilish, tushunarli bo‘lmagan g‘aliz jumalardan saqlanishda namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq. Demak, o‘quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilishi, ham o‘zgarlar fikri mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Nutqning sofligi, avvalo, uning tozaligi demakdir. Nutqni bunday so‘zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili fani o‘qituvchisining asosiy vazifasi bo‘lmog‘i lozirivojlangan nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilish orqali erishadi. Bu talablarga doimiy va qat‘iy amal qilinsagina nutqni o‘stirish, rivojlantirish samarali kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent-2009.
2. K. Qosimova S. Matchonov va boshqalar “Ona tili o‘qitish metodikasi”



АРАБ ТИЛИДАН ИСПАН ТИЛИГА ЎЗЛАШГАН СЎЗЛАР ВА БУНГА ТУРТКИ БЎЛГАН ОМИЛЛАР

Қосим Абдуллоҳ Мирафзал ўғли
Тошкент ислом институти ўқитувчиси,
Тошкент давлат шарқишунослик университети магистранти
Телефон: +998998183971
abdulloh_qosim@inbox.ru

Аннотация: Ушбу мақолада араб тилининг жаҳон тиллари орасидаги ўрни, Европа тиллари, хусусан испан тилига таъсири ва бунги туртки бўлган омиллар хусусида мулоҳазалар киритилган.

Калит сўзлар: Сомий тиллар, ўзлашма сўзлар, қадимий Андалус диёри, аниқлик артикли.

Араб тили ҳозирги кунда олти жаҳон тилининг бири ҳисобланади. ЮНЕСКО ахборотига кўра, ҳозирги кунда дунёда 5600дан ортиқ тил ва шевалар мавжуд. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти кенгашларида иш юритиш учун қўлланадиган етти тилнинг биттаси араб тилидир. Бу тилда БМТ, Араб давлатлари лигаси, Форс кўрфази араб давлатлари кенгаши, АОПЕК ташкилоти, Араб тили академияси, Ислом робитаси ташкилотлари сингари бир қатор халқаро ташкилотларда кенгашлар, сессиялар ва мажлислар олиб борилади.

Маълумки, сомий тиллар оиласига кирувчи араб тили дунёнинг энг қадимги тилларидан бўлиши билан бирга ўзининг бойлиги, кенгкамровлиги, назокат ва латофати ила эътирофга сазовор бўлган. Юксак маҳорат намунаси бўлган классик назму насри, мазкур тилда ёзилган тарихий, адабий, фалсафий манбалар ва энг асосийси, Куръони карим ва ҳадиси шариф тили бўлгани эса, араб тилининг қийматини чандон оширган.

Араб тили ўнлаб асрлардан буён мусулмон оламида, хусусан, Мовароуннаҳрда ҳам илм-маърифат тили ўлароқ амалда бўлгани натижасида ушбу жуғрофияда мавжуд тилларнинг барчаси, жумладан, ўзбек тилининг ҳам кўплаб сўзлар билан бойиши сайқал топиб, таракқий этишига ижобий таъсир кўрсатди. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, араб тилини ўрганиш, ўргатиш, илмий асосда чуқур ва теран тушуниш жаҳон маданияти, мусулмон шарқ тарихи, адабиёти, қолаверса, Ватанимиз шонли тарихи, Ўрта Осиёдан етишиб чиқиб, умумжаҳон илм-фани ривожига бекиёс ҳисса қўшган мутафаккирларнинг араб тилида ёзилган асарлари билан янада яқинроқ ва аниқроқ танишиш йулида мустаҳкам кўприк бўлиб хизмат қилади.

Шубҳасиз, ҳар қандай тилни луғатларсиз ўрганиш тасаввур қиларли иш эмас. Бинобарин, инсоният ўз тарихида жуда қадимдан бир тилли, икки ва кўп тилли луғатлар тузиб келган ва бу йўлда катта тажриба орттирган. Маълум бўлишича, турли халқларда луғатшунослик анъанаси уч босқичда шаклланган. Биринчи босқич, луғатгача бўлган давр деб аталади. Ушбу босқич тушунарсиз сўзларни изоҳлаш билан белгиланиб, шумерларда мил. ав. XXV асрда, хитойларда мил. ав. XX асрда, Ғарбий Европада мил. ав. VII асрда юзага келган, иккинчи босқич, илк луғат даври деб юритилиб, оғзаки тилдан фарқ қилувчи адабий тилни ўрганишга хизмат қилган. Санскрит тилида бу босқич VI-VII асрларда, қадимги юнонларда эса X асрда юзага келган бўлса, кейинроқ лотинча-инглизча (XV аср), черков славянча-русчаси (XV аср) каби икки тилли луғатлар пайдо бўлди. Бир тилли изоҳли луғатлар дастлаб иероглифли ёзувга асосланган Хитой (мил. ав. 111 аср) ва Японияда (VIII аср) тузилган. Учинчи босқич, ривожланган миллий адабий тилларга асосланган тарарий этан тилшунослик босқичи. Бу босқичда мукамал изоҳли, таржима ва ихтисослашган луғатлар тузилди, чоп этилди.

Исломгача бўлган даврда араблар орасида ўқиш-ёзиш кенг тарқалмаган бўлиб, луғат тузишга ҳам бирор зарурат бўлмаган. Ислом келгач эса, одамларда янги истилоҳлар ва тушунарсиз сўзлар маъносини билиш эҳтиёжи туғилди. Бу эса, биринчи навбатда оғзаки тарзда бўлса-да луғатшунослик анъанасининг юзага келишига туртки бўлди. Араб луғатчилиги, гарчи энг биринчи бўлиб пужудга келмаган бўлса-да, бу борада олиб борилган ишларнинг улканлиги, самарадорлиги, ҳам сони, ҳам сифати жихатидан етакчи ўринлардан бирини эгаллади (айрим тилишлуносларга кўра, Хитой тилидан кейин иккинчи ўринда). Олимларни араб тилига, унинг грамматикаси, фасохат ва балоғати, хусусан, лексикаси



билан махсус шуғулланишга ундаган омил бу, шубҳасиз, классик араб адабиёти, шунингдек, Куръони каримни тушуниш истагидир. Зотан, Ислоннинг илк даврида араб тилининг энг билимдони саналган саҳобалар ҳам айрим сўзларнинг маъноларига тушунмаганлар ва уларни ўрганишга ҳаракат қилганлар. Шундай қилиб, луғатшунослик борасида илк қадамлар қўйила бошлаган.

Испан тили – испанлар тили ҳисобланиб, ҳинд-европа тиллари оиласининг роман тиллари гуруҳига мансуб. Испан тилида сўнги маълумотларга кўра, 400 млнга яқин киши сўзлашади. Испания ва Лотин Америкасидаги 19 мамлакатнинг (Перуда кечуа, Боливияда кечуа ва аймара, Пуэрто-Рикода инглиз тили б-н бир қаторда) расмий тили испан тили саналади. Жонли лотин тили асосида шаклланган, кўп диалектли, луғати таркибида араб тилидан ўзлашган сўзлар анчагина, Испан адабий тилига кастил диалекти асос қилиб олинган. Шунинг учун испан тили XV асргача “кастил тили” деб ҳам аталган. Испан тилига оид дастлабки ёзув намуналари X-XI асрларга оид расмий ҳужжатларда учрайди. Испан тили товуш қурилиши учун 5 унли, дифтонг ва трифтонглар хос. Урғунинг ўрни қатъий эмас. От ва сифат турланмайди, жинс ва сон категориялари, артиклниг 3 тури (аниқ, ноаниқ ва нол) мавжуд. Фақат кишилиқ олмошларигина турланади. Гапда сўзлар тартиби нисбатан эркин. Ёзуви лотин алифбоси асосида. Испан тили – БМТнинг олти расмий ва иш юритиш тилидан бири ҳисобланади.

Шарқшунос олимлар Анжилмон ва Дузи ўзларининг “Араб тилидан ўзлашган испанча ва португалча сўзлар луғати” номли китобларида айтишларича, араб тилидан испан тилига ўзлашган сўзлар испан тилидаги сўзларнинг тўртдан бир қисмига тўғри келар экан.

Бунга асосий сабаб – Андалусия диёрининг 711-1492 йиллар оралиғида мусулмон ерларга тегишли бўлгани ҳисобланади.

Асли арабча бўлиб, испан тилига кирган сўзларни ўрганиш, тадқиқ этиш, таҳлил қилиш борасида кўплаб тадқиқотчилар изланиш олиб борганлар. Хусусан, Анжилмон ва Дузи ўзларининг “Араб тилидан ўзлашган испанча ва португалча сўзлар луғати” номли китоб ёзганлар. Кузбери, Салми Ҳаффор “Асли арабча бўлган испан тилидаги сўзларнинг тўртдан бири”, Анон, Муҳаммад Абдуллох “Қофилатуз зайт” журналида “Араб тилининг испан тилига таъсири”, Фахриддин, Самиранинг “Араб тилининг испан тилига таъсири”, Саййид Алоуддин “Арабча сўз ва атамаларнинг жаҳон тилларидаги ўрни”, Анвар Маҳмуд Занотийнинг “Араб тили ва замонавий мулоқот”, Муҳаммад Муҳаммад Хаттобийнинг “Араб тили ва унинг сервантис тилига таъсири”, Майсун Шақирнинг “Араб тили испан тилидан қадимийдир, Испан тили араб тилидан ҳомиладор бўлган”, Салмо Руснинг “Испан тилида сақланиб қолган арабча сўзлар”, “Сиз араб тилида гаплашсангиз, демак испан тилида ҳам гапираётган бўласиз” каби илмий мақолалар ёзишган.

Араб тилининг испан тилига таъсири ниҳоят даражада катта бўлган. Араб, барбар мусулмонлар Испания диёрларини ватан тутишган. Мусулмонлар бу ҳудудда тахминан 8 асрга яқин истиқомат қилишган. Яна ҳам аниқроқ айтиладиган бўлса мелодий 711 йилдан то 1492 йилгача ҳукмронлик қилишган.

Ҳозирги кунда испан тили жуда кўплаб асли арабча бўлган сўзларни ўз ичига олади. Шу боисдан ҳам, испан тилининг тўртдан бир қисми араб тилидаги сўзлар эканлиги таъкидланади.

Араб тили Испаниянинг жанубий ва шарқий қисмларига ёки бошқача қилиб айтганда, Андалус деб номланувчи минтақага ўз таъсирини ўтказган.

Испаниялик тадқиқотчи филологларнинг айтишича, испан тилига араб тилининг таъсири ниҳоят даражада чуқур.

Тарих гувоҳлик берадики, мусулмонлар Испания ва Португалияда илм-фан ёйилишида буюк цивилизацияга асос солишган. Шунингдек, зироат, ишлаб чиқариш, муҳандислик каби муҳим соҳаларда ҳам янгиликларни тақдим этишган. Ҳатто шу даражадаки, Андалус ўша пайтларда Европа маркази, гуллаб яшнаган диёр ҳисобланган.

Бунинг натижасида жуда кўплаб жой номлари, кишиларнинг исмлари ва шу каби атоқли отларда, ҳатто феълларда ҳам араб тилининг таъсири намоён бўлади. Бироқ ҳозирги кунга келиб, араб тилидаги феъллар испан тилида деярли ишлатилмай қўйди. Наридан 10 тага яқин арабча феъл туркумига оид сўз қолган бўлиши мумкин.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Араб филологиясига кириш: Ўқув қўлланма. Муаллифлар: Мирзиятов Ш.М., Маматахунова Д.К.– Т.: 2010. – 77 б.
2. Ал-асолибул иншойя фил арабийя. Доктор Иброҳим Абуд Сомирой. 2008 й. Дорул маноҳиж лин нашр. – 200 б.
3. Анон Муҳаммад Абдуллоҳ. Мажаллату қофилатиз зайт: Асарул луғатил арабия фил луғатил исбания. – 262 б.
4. Анжилмон, Дузи. Муъжамул муфрадотил исбания вал буртуғолиятил муштаққа минал луғатил арабия. 1974 й. Мактабату Лубнон. – 425 б.



“NAHJUL FARODIS” ASARINING BADIYYATI

*Abdurazokova Sarvinoz
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)
yo‘nalishi II bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Nahjul farodis” asarining janr jihatlari, didaktik janrga mansub hikoyatlar badiiyati, hadislarning tarbiyaviy ahamiyati xususida so‘z boradi. Hadislarni keng sharhlash asosida yuzaga kelgan hikoyat va rivoyatlarning har biri ma’lum bir g‘oyani – to‘g‘rilik, halollik, rahm-shafqat kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Insoniyatni ma’rifatga chorlash, komillik sari da’vat qilish kabi fazilatlarini Mahmud Ali har bir bobda ilgari suradi.

Annotation. This article discusses the genre aspects of “Nahjul Farodis”, the art of didactic stories, and the educational value of hadiths. Each of your stories and narrations, which are based on a broad interpretation of the hadiths, serves to shape a certain idea - such as truthfulness, honesty, and compassion. In every chapter, Mahmud Ali emphasizes the virtues of enlightenment and the call to perfection.

Аннотации. В этой статье обсуждаются жанровые аспекты “Нахджула Фародиса”, искусство дидактических историй и образовательная ценность хадисов. Каждое ваше повествование и повествование, основанное на широком толковании хадисов, служит для формирования определенной идеи - таких качеств, как правдивость, честность и сострадание. В каждой главе Махмуд Али подчеркивает достоинства просветления и призыв к совершенству.

Kalit so‘zlar: Hadis, janr, asar, didatika

Key words: Hadith, genre, work, didactics

Ключевые слова: Хадис, жанр, произведение, дидактика

